


MUSIQA MADANIYATI VA UNING HAYOTDAGI O'RNI



Abdixodirova Go'zal Erali qizi
Chirchiq davlat pedagogika Universiteti
Umumiy pedagogika kafedrasи o'qituvchisi
Sadikova Gulsevar Ravshan qizi
Chirchiq davlat Pedagogika Universiteti
Musiqa ta'limi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o`zbek xalqining musiqa madaniyatidagi uzoq O`tmishdagi so`z yuritilgan. Ayniqsa folklor musiqasi, an'anaviy xonandaik va mumtoz ashula san'atini bizgacha etib kelishida o`zining ulkan hissalarini qo'shib kelgan ustoz san'atkorlar haqida so`z yuritilgan. Ushbu musiqiy me'rosimizning bugungi kundaga yosh iste'dodli sana'tkorlrimiz tomonidan ijro etib kelinayotganligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Prezidentimiz ta'kidlaganlariday, ma'naviyat masalasi millat tarixi, axloqiy va diniy qadriyatlar, madaniy meros, an'ana va rasm-rusumlar, milliy mafkura, vatanparvarlik va insonparvarlik, milliy o'zlikni anglash singari juda ko'p omillarni o'z ichiga oladi va pirovardida, inson shaxsini belgilashda asosiy mezon vazifasini bajaradi.

Kalit So'zlar: folklor, raqs, an'anaviy, noan'anaviy, mumtoz, kompozitor, o`zbek kompozitorlik maktabi, nota, epik poema, o'n ikki maqom, tanovar.

Аннотация: В данной статье издавна рассматривается музыкальная культура узбекского народа используется прошедшее время. В частности, говорилось о мастерах-исполнителях, внесших большой вклад в фольклорную музыку, традиционное пение и классическое певческое искусство. Особо было подчеркнуто, что это наше музыкальное наследие исполняется нашими молодыми талантливыми артистами. Как отметил Президент, вопрос духовности включает в себя множество факторов, таких как история нации, нравственные и религиозные ценности, культурное наследие, традиции и обычаи, национальная идеология, патриотизм и гуманизм, национальная идентичность, принимает и в конечном итоге служит главным критерием для определения личности человека.

Ключевые слова: Фольклор, танец, традиционный, нетрадиционный, классический, композитор, Узбекский школа композиции, ноты, эпическая поэма, двенадцать статусов, тановар.

Abstract: In this article, the musical culture of the Uzbek people is long the past tense is used. In particular, it was mentioned about the master artists who made great contributions to the folklore music, traditional singing and classical singing art. It was specially emphasized that this musical heritage of ours is being performed by our young talented artists. As the President noted, the issue of spirituality includes many

factors, such as the nation's history, moral and religious values, cultural heritage, traditions and customs, national ideology, patriotism and humanitarianism, and national identity. takes and ultimately serves as the main criterion for defining human personality.

Keywords: folklore, dance, traditional, non-traditional, classical, composer, Uzbek composition school, sheet music, epic poem, twelve statuses, tanovar.

O`zbek xalqimizning musiqa madaniyati juda katta va uzoq tarixga ega bo`lib, tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an`anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo`llari, shuningdek, folklor – havaskorlik musiqiy merosi singari shakliy va uslubiy bir-biriga yaqin ijrochilik ko`rinishlari bir-birini to`ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunda ham ma`naviy madaniyatimizning bir bo`lagiga aylangan.Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma`naviy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga,unutilayotgan, tarixan qadrli an`analarimizga bo`lgan e`tibor, ularni yangidan isloh etish jarayoni ustivor yo`nalish kasb etdi. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ma`naviy boyligimizga bo`lgan e`tibor yanada ortdi va keng tarqaldi. Mustaqillikning dastlabki yillardanoq ota-bobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma`naviy boyliklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida ko`plab ishlar amalga oshirildi. Bu borada ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirgan ulkan ma`naviy boyligimiz bizlarga ko`plab xizmat qilib kelmoqda. Tarixdan ma`lum, ma`naviyatimizning asosiy bo`g`ini bo`lgan musiqiy madaniyatimiz, an`anaviy qo`schiqlarimiz, maqom ijrolari hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma`naviy ozuqa sifatida e`tirof etib kelingan. Xalqimizning og`ir kunlarida musiqa najot bo`lgan, xursandchilik kunlarida ham qo`schiq va musiqa ularga hamroh bo`lib kelmoqda. Zero, bugungi muborak mustaqillikga erishgan kunimizdanoq, o`zligimizni anglab borayotganimiz, bir davrda ulkan ma`naviyatimizning bir bo`lagi bo`lgan, ota-bobolarimiz meros qilib qoldirib ketgan milliy musiqiy madaniyatimiz va an`anaviy qo`schiqlarimizga suyanish tabiiydir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma`naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. An`anaviy musiqa va qo`schiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr oqibatga, odamiylikka chorlab kelmoqda. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo`qotmagan holda mustaqillikga, mehnatkashlar ongini shakllantirishda, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo`lib kelaveradi. Ashula, musiqa, raqs, folklor ijrochiligi san`ati milliy musiqa san`atimizning xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog`liq holda paydo bo`lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san`at turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an`anaviy ruhdagi qo`schiqlari o`lmas meros bo`lib, barcha davrlardagidek bugun ham «labbay» deb javob bermoqda. Lekin shu bilan bir qatorda faqat tarixga sajda qilmay, bugungi kunning ruhiga mos tarzda

qo'shiqlar yaratish esa milliy mafkuramizni rivojlantirishda bosh omillardan bo'lmish musiqiy san'at bilan shug'ullanayotgan barcha mutaxassis va san'atkorlarga muhim vazifa qilib qo'yilishi tabiiydir. Mamlakatimiz tamomila yangi jamiyat, yangi turmush va yangi hayotni boshlab yubordi. Odamlarimiz qalbi, tafakkuri va tasavvurida o'zgarishlar paydo bo'ldi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis hamda xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida yurtimiz ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirishga doir bo'lgan muhim vazifalar belgilab berildi. "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida ham bu jihatlarga keng o'rin ajratilgan bo'lib, ilm-fan taraqqiyotining moddiy va huquqiy asosi yaratildi. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida ilm-fan hamda badiiy ta'limning rivojlantirish, yurtimizda olib borilayotgan keng islohotlarning tasviriy va amaliy san'atda aks etishini tahlil qilish, san'atimizni xalqaro miqyosda targ'ib etishga qaratilgan "Zamonaviy jamiyatda fan va badiiy ta'lim: dolzarb masalalar va innovatsion tadqiqotlar" mavzusida xalqaro ilmiy onlayn konferensiya 2021-yil 12-fevral kuni bo'lib o'tdi. Anjumanda yurtimizning taniqli san'atshunoslari va yosh olimlari bilan bir qatorda, Rossiya Federatsiyasi, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Turkiya, Xitoy, Armaniston, Moldova, Tojikiston kabi o'ndan ortiq davlatlardan tadqiqotchilar o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi. Prezidentimiz ta'kidlaganlariday, ma'naviyat masalasi millat tarixi, axloqiy va diniy qadriyatlar, madaniy meros, an'ana va rasm-rusumlar, milliy mafkura, vatanparvarlik va insonparvarlik, milliy o'zlikni anglash singari juda ko'p omillarni o'z ichiga oladi va pirovardida, inson shaxsini belgilashda asosiy mezon vazifasini bajaradi. Ma'naviylik va ma'rifiylik xalqimizning ko'p asrlik tarixi davomida doimo uning eng kuchli o'ziga xos xususiyati bo'lib keldi. Ushbu tamoyillardan kelib chiqib, ma'naviy jabhalarning barcha yo'nalishlari o'zlarining maqsad va vazifalarini belgilab olishlari zarur bo'ladi. Ayniqsa, bu jabhada musiqiy madaniyatning ma'naviyhayotdagи o'ziga xos o'rnini baholash, uning ta'sirchanlik kuchini mustaqillik mafkurasi tomon yo'naltirish uning bosh mezoni ekanligini anglash muhimdir. Madaniy hayotda bugungi kunda shu tamoyilga ko'ra siljishlar kuzatilmoqda. Ijodkorlarning fikri-zikri ana shu tamoyillar yo'liga yo'naltirilgan desak, xato qilmagan bo'lamiz. Musiqiy madaniyat o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o'zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga etib boradigan o'zbek xalqining boy musiqa merosi hozirgi kundalik hayotimizdan ham tushgani yo'q. U xalq ijodining yuksak namunalari, folklor ijrochiligi, kuy tuzilishi, mazmunan rivojlangan cholg'u va ashula asarlari, dostonlar ijrochiligi hamda murakkab ijrochilik turkumi atalmish maqom musiqasini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalq musiqiy madaniyatida o'zlarining barcha davrlarda sezilarli hissalarini qo'shib kelayotgan xalq bastakorlarining ijodi ham salmoqli o'rin tutadi. XIX asr oxirlariga kelib o'zbek musiqiy madaniyatida o'zgarishlar davri boshlandi. Bu albatta,

Turkiston o'lkasini Rossiya tomonidan istilo qilinishi bilan bog'liqdir. Bu borada ikki tomonlama qarash bilan o'r ganmoq zarur bo'ladi. Chunki ba'zi bir hollarda milliy musiqa madaniyatimizga salbiy ta'sirini kuzatsak, ikkinchi tomondan, o'ziga xos rivojlanish davri bo'lganligini ham e'tirof etish zarur bo'ladi. Chunki nota yozuvining kirib kelishi, o'lkamizda milliy musiqa san'atimizni ilmiy ravishda o'r ganish, folklor va etnografiya sohasidagi rivojlanishga sezilarli ta'sir etdi. Bu borada V.A.Uspenskiy, E.E.Romanovskaya, N.N.Mironov singari musiqashunos va etnograf olimlarning mehnatlarini aytib o'tish zarur bo'ladi. Ilyos Akbarov, Mutal Burxonov, Yunus Rajabiy, Tolibjon Sodiqov, Muxtor Ashrafiy singari musiqamiz darg'alari ulardan saboq oldilar. Bundan tashqari, jahon musiqiy madaniyatining durdonalari sanalmish fortepiano sozi, opera va balet, simfonik ijro, jahon klassik musiqiy sozlarining kirib kelishi musiqiy madaniyatimizning har tomonlama serqirra rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Natijada, o'zbek xalq musiqalari, qo'shiqlari, maqomlari joy olgan 20 jilddan ortiq kitoblar dunyo yuzini ko'rdi. So'nggi 130 yil ichida musiqiy madaniyatimiz murakkab, keskin ziddiyatlarga, ijobiy va salbiy ko'rinishlarga to'la tarixiy davrni boshidan kechirdi.

Maqomlar tarixini o`zaro farqli ikki yirik davrga ajratish mumkin. Birinchi davr mazmunini maqomlarning makon-zamon nuqtai nazaridan juda qadimiyligi kelib chiqish ildizlari, dastlabki kuy ohang qatlamlarini o'r ganish tashkil etadi. Tabiiyki, bu davrda hozirda bizga ma'lum tom ma`nodagi maqomlar bo`lmagan albatta. Zotan bizgacha yetib kelgan maqomot tizimlarining shakllanish jarayonlari ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning ma'lum bosqichi bilan shartlanganki, bu (ikkinchi davr) xususida o'z o'rnida mufassalroq to`xtamga o`tamiz. Ta`kidlashimiz joizki, maqom kuy ohanglarini qadimiyligi qatlamlarini o'r ganishga ko`mak bo`luvchi mahsus musiqiy risolalar bilan bo`lmasada, lekin bu borada eng asosiy va muhim manbaalar bizning davrga qadar yetib kelgan. U ham bo`lsa o'tgan ajdodlarimizdan ulkan ma`naviy meros qolgan "Shashmaqom", "Xorazm maqomlari" va "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari"dir. Maqom kuylarining xususiy "til" tuzilish (sintaksis) qurilmalarini malakaviy idrok va tahlil eta olish asosida ularning tarkibida uyg'unlashgan turli hil davr musiqiy qatlamlarini aniqlab olish imkoniyatimiz mavjud. Ayni paytda bizga ma'lum rivoyatlar mazmunidan ham zarur xulosalar chiqarish mumkin. Shuni aytish lozimkki maqomlar musiqasiga oid "maqom" atamasidan avval "yo'l" ma`nosini anglatuvchi "roh", "tariqa", "ravish" kabi atamalar qo'llanib kelganligini Darvish Ali Changiy bayon etgan ma'lumotlarni quvvatlashga xizmat qilishi mumkin. Alloh taoloning yer yuzidagi elchilari bo'lgan payg`ambarlarning insonlarga chinakam baxtsaodatga erishish yo'llarini ko`rsatib ketganlar. Ulardan qolgan ma`naviy ta`limot namunalari jamoaalar orasida alohida e'tiborga olinib avaylab, asrab, ezzozlanib kelinmoqda. avloddan-avlodga go`zal ruhiy meros sifatida o'tib kelgan. Inson tinglovi va idroki uchun eng ma'qul va manzur bo'lgan mukammal pardalar ham dastlab shu

meros negizada [[(yoki uni nazariy jihatdan o`rganish asnosida)]] hosil etilib, so`ngra shu [[(parda)]] “yo’llar” asosida turli kuylar rivojlantirilgan [[(yoki kuylarning yangi namunalari ijod etilgan)]] bo`lsa kerak.

Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lgan milliy maqom san’ati o‘zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an’analari bilan ma’naviy hayotimizda alohida muhim o‘rin egallaydi.

Asrlar davomida ulug‘ shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoiyligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san’at nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuhrat va e’tibor qozongan. Maqom san’atining gultoji bo‘lgan “Shashmaqom” YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatda e’tirof etilgani hamda uning Reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig‘idir.O‘tgan davr mobaynidagi mamlakatimizda maqom san’atini o‘rganish va rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, o‘zbek “Shashmaqomi” nota matnlarining nashr etilishi va ularga muvofiq ravishda maqom kuy-qo’shiqlarining magnit lentalarga yozib olinishi ulkan ilmiy-madaniy ahamiyatga ega voqeа bo‘ldi.Hozirgi kunda yurtimizda Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansamblı, hududlarda maqom jamoalari, O‘zbekiston davlat konservatoriyasida shu yo‘nalishda maxsus kafedra faoliyat ko‘rsatayotgani, sohaga oid ilmiy izlanishlar olib borilayotganini qayd etish lozim.Ayni vaqtida milliy o‘zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo, yosh avlodimizni yuksak insoniy tuyg‘ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san’atining keng imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayabdi.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng jamiyat xayotining barcha sohalarida bo‘lgani kabi ta’lim sohasida ham ulkan ijobiy o‘zgarishlarga erishildi. O‘sib kelayotgan yosh avlod ma’naviy dunyoqarashi, tafakkur olamini milliy asosda shakllantirish, ularga musiqiy-badiiy jihatdan tarbiyalashga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratildi va bu jarayon hozirgi kunda ham izchil tarzda davom ettirilayotganligi hamda ijobiy natijalar berayotganligi diqqatga molikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Rajabov. «Maqom asoslari». O’rtta va oliy o’quv Yurtlari uchun metodik qo’llanma. O‘zbekiston madaniyat vazirligi madaniyat bo’limi. Toshkent. 1992 yil. 90-bob.
2. A.Xakimov.D.Ergasheva»Saraxbor»”Namangan” nashriyoti 2010yil.
3. Oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun darslik va o’quv qo’llanmalar